


Korxonalar va tashkilotlar (2018 yil yanvar-oktabr)

2018 yilning yanvar-oktabr oyida Viloyatimizda 2594 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 660 taga ko'pdir.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 18471 ta (11,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 20648 tani tashkil etgan.


Korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'zida tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, xayotga tadbiiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 noyabr holatiga)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,8 % savdoda, 12,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 12,3 % qurilishda, 11,8 % sanoatda, 4,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,6 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa, va 29,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni, o'sish dinamikasi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	2018-yil 1 noyabr holatiga	
			Ro'yxatdan o'tgan, %	Faoliyat ko'rsatayotgan, %
Qashqadaryo viloyati	21263	20648	100	100
Qarshi sh	4607	4405	21,7	21,3
Shahrisabz sh.	1360	1348	6,4	6,5
tumanlar:				
G'uzor	961	908	4,5	4,4
Dehqonobod	1051	967	4,9	4,7
Qamashi	1409	1393	6,6	6,7
Qarshi	1602	1583	7,5	7,7
Koson	1803	1783	8,5	8,6
Kitob	1487	1479	7,0	7,2
Mirishkor	642	629	3,0	3,0
Muborak	811	776	3,8	3,8
Nishon	750	732	3,5	3,5
Kasbi	750	717	3,5	3,5
Chiroqchi	1680	1625	7,9	7,9
Shahrisabz	920	902	4,3	4,4
Yakkabog'	1430	1401	6,7	6,8

2018 yil yanvar-oktabr holatiga 2594 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan 34,1 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Qarshi shahrida (553 ta), Chiroqchi (241 ta), Koson (195 ta) va Qarshi (195 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Mirishkor (91 ta), Dehqonobod (96 ta) hamda Kasbi (97 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoatda (428 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (415 ta), savdoda (407 ta), qurilishda (371 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (29 ta), tashish va saqlashda (70 ta) hamda saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (85 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	2016 yil 1 noyabr holatiga			2017 yil 1 noyabr holatiga			2018 yil 1 noyabr holatiga		
	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	285	114,9	18,2	412	144,6	21,3	415	100,7	16,0
Sanoat	237	94,8	15,2	365	154,0	18,9	428	117,3	16,5
Qurilish	240	112,7	15,3	245	102,1	12,7	371	151,4	14,3
Savdo	437	107,4	27,9	327	74,8	16,9	407	124,5	15,7
Tashish va saqlash	59	122,9	3,8	72	122,0	3,7	70	97,2	2,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	102	104,1	6,5	113	110,8	5,8	112	99,1	4,3
Axborot va aloqa	17	130,8	1,1	41	241,2	2,1	29	70,7	1,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	39	125,8	2,5	48	123,1	2,5	85	177,1	3,3
Boshqa turlari	148	87,1	9,5	311	210,1	16,1	677	217,7	26,1


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 noyabr holatiga 16553 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 7164 ta, oilaviy korxonalar – 660 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 7837 ta, va boshqalar 892 tani tashkil etadi.


Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 75 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 20 taga yoki 36,4 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 57 tasi qo'shma korxonalar, 18 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar davomida o'sishi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Qarshi shahar 26 ta (34,7 %), Kitob tumani 10 ta (13,3 %) va Qarshi tumanlari 6 ta (8,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Dehqonobod tumani 1 ta (1,3 %), Nishon, Kasbi, Chiroqchi, Yakkabog' tumanlari 2 ta (2,7 %), Koson, Shahrizabz tumanlari 3 ta (4,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Mirishkor tumanida tashkil etilmagan.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 noyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 45 ta (60,0 %), savdoda 11 ta (14,7 %) hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 7 ta (9,3 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqa, tashish va saqlashda 1 ta (1,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3 ta (4,0 %) va qurilishda 4 ta (5,3 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)



2018 yilning yanvar-oktabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 20 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 4 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 5 ta, Qozog'iston Respublikasi – 1 ta, va Koreya Respublikasi – 3 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-oktabr holatiga) birlikda**




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 10 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 4 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.




Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 noyabr holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 16413 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 noyabr holatiga qaraganda 12,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 3643 tasi (22,2 %) Qarshi shahriga, 1463 tasi (8,9 %) Koson, 1336 tasi (8,1 %) Qarshi hamda 1256 tasi (7,7 %) Chiroqchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 16413 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4674 tasi (28,5 %) – savdoda, 2608 tasi (15,9 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 2516 tasi (15,3 %) - qurilishda, 2395 tasi (14,6 %) - sanoatda, 836 tasi (5,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 735 tasi (4,5 %) - tashish va saqlashda, 352 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 234 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 2063 tasi (12,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yil yanvar-oktabr holatiga 2430 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 28,3 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahrida (516 ta), Chiroqchi (228 ta), Koson

(188 ta) va Qarshi tumanlarida (188 ta) tashkil etilgan. Eng kam Dehqonobod (86 ta), Mirishkor (88 ta) hamda Kasbi (89 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (428 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (414 ta), savdoda (407 ta) va qurilishda (371 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (29 ta), tashish va saqlashda (70 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (83 ta) tashkil etilgan.



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 noyabr holatiga 676 tani tashkil etib, ulardan 660 tasi yoki 97,6 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 28,3 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 29,5 % yoki 195 tasi sanoat, 19,1 % yoki 126 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 18,8 % yoki 124 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,0 % yoki 99 tasi savdo, 2,7 % yoki 18 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,7 % yoki 11 tasi qurilish, 1,5 % yoki 10 tasi tashish va saqlash, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 11,4 % yoki 75 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:71-230-84-10
(75) 221-17-93